

O'zbekiston Respublikasi Prezidenti stipendiyasi sohiblariga guvohnomalar topshirildi

2020-yil 3-mart kuni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vazirligida 2020-yil uchun tayanch doktorantlar o'rtasida O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyalari g'oliblari guvohnomalarni topshirishga bag'ishlangan tantanali tadbir bo'lib o'tdi. O'zbekiston Respublikasi Prezidenti Davlat stipendiyalari sohiblariga guvohnomalarni O'zbekiston Respublikasi Oliy va o'rta maxsus ta'lim vaziri o'rinbosari U.Begimkulov topshirdi.

O'zbekiston Respublikasi Fanlar akademiyasi Zoologiya instituti tayanch doktoranti Muxayyo Atamuratova Prezident stipendiyasi tanlovida tabiiy fanlar, axborot texnologiyalari va boshqaruv yo'nalishi bo'yicha g'olib deb topildi.



Yosh tadqiqotchi Muxayyo Atamuratovaga kelgusidagi ishlariga muvaffaqiyatlar tilaymiz!